

AXLOQIY KOMPETENSIYALAR VA UNING PEDAGOGIK TAHLILI

*Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori v.v.b.*

MORAL COMPETENCES AND ITS PEDAGOGICAL ANALYSIS

*Rakhmanov Sunnatillo Mavlonovich,
Associate professor of the Uzbekistan State University of World
Languages*

НРАВСТВЕННЫЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АНАЛИЗЫ

*Рахманов Суннатилло Мавлонович,
Вр. и. о. профессора Узбекского государственного университета
мировых языков*



[sunnat.rahmonov@
inbox.ru](mailto:sunnat.rahmonov@inbox.ru)

+998 97 377 05 77

Annotatsiya: Mazkur maqolada axloqiy kompetensiyalar va uning pedagogik tahlili aks ettirilgan. Kompetensiya tushunchasi muayyan sohada faoliyat olib boradigan mutaxassisning samarali, nazariy va amaliy tayyorlarligiga qo'yiladigan talablardir. Axloqiy kompetensiya mezonlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik so'zining negizini ona Vatanga bo'lgan muhabbat tashkil etadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, tayanch kompetensiyalar, kasbiy kompetenyesiya.

Abstract: This article reflects moral competences and its pedagogical analysis. The concept of competence is the requirements for the effective, theoretical and practical training of a specialist working in a certain field. One of the important components of the criteria of moral competence is patriotism. The basis of the word patriotism is love for the Motherland.

Key words: competence, competence, basic competences, professional competence.

Аннотация: В данной статье отражены моральные компетенции и их педагогический анализ. Понятие компетентности – это требования к эффективной, теоретической и практической подготовке специалиста, работающего в определенной области. Одной из важных составляющих критерииев моральной компетентности является патриотизм. В основе слова патриотизм лежит любовь к Родине.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, базовые компетенции, профессиональная компетентность.

K IRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION

Bugungi shiddatli taraqqiyot ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligini yana bir bor namoyon etmoqda. Ta'lim va tarbiya o'zaro uyg'un, uzuksiz asosda tashkil etilsagina yetuk axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, yuksak

ma'naviyatli komil inson, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom bo'lgan keng dunyoqarashli, vatanparvar, zamон talablariga javob bera oladigan yosh kadrlarni yetishtirish mumkin. Bunda talabalarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rinnegallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Kompetensiya atamasi lotincha “competere” so‘zidan olingen bo‘lib, “erishamoq, muvofiq kelmoq, mos kelmoq” ma’nolarini anglatib, insonlarning egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalari majmuasini o‘zida mujassam etadigan qobiliyat turidir [1. B. 6]. Kompetensiya keng ma’noda murakkab vaziyatlarda mavjud bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada qo‘llay olishdir. Shunday ekan kompetensiyani egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatni desak ham bo‘ladi.

Kompetensiya atamasi ilmiy tadqiqotlarda XX-asrning 60-70-yillarida keng qo‘llanila boshlangan. Aniqrog‘i, tadqiqotlarda “kompetensiya” atamasi ilk bor muayyan sohadan foydalanish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida qayd etilgan [2. B. 17].

Yana bir tadqiqotda kompetensiyaga ta’rif berilar ekan, unda “kompetensiya shunday alohida faoliyat sohasiki, bunda individ o‘zida yuqori darajada o‘zlashtirilgan yutuqlar strategiyasini namoyish qiladi. Bu strategiya, mavjud bilimlar va o‘z ustida muntazam ishslash asosida vujudga kelgan strategiyalar, malaka va amaliy bilimlar majmuidir. Shunday ekan, kompetentlilik olingen bilimlar asosida shakllangan malaka va ko‘nikmalar bo‘lib, muvaffaqiyat strategiyalarini o‘zlashtirish hisobiga samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir [3. B. 33-48].

“Kompetentlik” tushunchasi pedagogik tadqiqotlar hosilasida vujudga kelgan tushuncha bo‘lib, shaxsning noan’anaviy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, erkin muloqotga kirishishi, o‘zaro munosabatlarda yangicha uslub va harakat rejasiga ega bo‘lishi tushuniladi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida xususan, oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi davlat ta’lim standartlari talablarining takomillashtirilishiga, qolaversa, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv dasturlarining takomillashtirilishiga olib keldi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSION)

Kompetensiya tushunchasi muayyan sohada faoliyat olib boridigan mutaxassisning

samarali, nazariy va amaliy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning ilmiy atamasidir. Jumladan, pedagogika sohasida samarali faoliyat yuritish uchun ilmiy yoki professional tayyorgarlikka nisbatan kompetensiya atamasi qo‘llaniladi. Chunonchi, talabalarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish ularning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olishga yo‘naltirib boradi. Natijada, talabalarda tashabbuskorlik, mustaqil fikr yuritish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, zamonaviy texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash va sog‘lom turmush tarzini tanlash kabi xususiyatlar shakllanib boradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida shakllanadigan pyedagogik kompetentlik quyidagi guruhlarga ajratib tasniflash mumkin:

- kasbiy kompetenyesiya;
- maxsus kompetensiya;
- ma’naviy-axloqiy kompetensiya;
- tayanch kompetensiya va hokazo...

Kasbiy kompetensiya – muayyan mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda qo‘llay olishdir. Kasbiy kompetentlik alohida bilim va malakalarning egallanishini emas, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi jarayondir. Shuningdek, kasbiy kompetensiya muayyan mutaxassislik bo‘yicha bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi ma’lumotlarni o‘rganish, qayta ishslash va o‘z faoliyatida samarali qo‘llay bilishni taqozo etuvchi qobiliyatdir.

Maxsus kompetensiya – kasbiy kompetensiya negizida shakllanib, kasbiy-pedagogik faoliyatni mukammal tashkil etish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal etish, o‘quvchi yoki talabalar faoliyati natijalarini xolisona baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borishdir. Maxsus kompetensiya negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik kabi sifatlar ham shakllanib boradi.

Ma’naviy-axloqiy kompetentlik – talabalarning yuksak tayyorgarlik darajasi,

malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zining faoliyatida aks ettirishini ta'minlovchi qobiliyatdir. Umummadaniy kompetensiya talabalarning jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilishi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zining his tuyg'ularini boshqara olishi, bilim olish, o'qish va o'rganishni takomillashtirib borishiga ko'maklashuvchi jarayondir.

Axloqiy kompetensiya mezonlarining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri adolatparvarlikdir. Adolatparvarlik asosan shaxsning muayyan jamiyat yoki davlatga ko'rsatgan huquqiy-axloqiy me'yorlar asosidagi ijobiy, insonparvarona ta'sirini ifodalovchi jarayondir. Adolatparvarlik adolat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatdagি shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning huquqiy-axloqiy farovonligi aynan adolatga tayangan holda ta'minlanadi va bir me'yorga keltiriladi.

Axloqiy kompetensiyalar talaba-yoshlarda shakllantirib borilar ekan, ularda mustaqil dunyoqarashning shakllanishi, so'z va amal birligining ta'minlashi, nafaqat shaxsiy, balki jamiyat manfaati uchun ham qayg'urish xislatlarining shakllanishiga olib keladi. Talabalarda shakllangan muayyan axloqiy tafakkur, axloqiy fazilat, axloqiy munosabat va axloqiy harakatlar kabi axloqiy kompetensiyalar jamlanmasi sifatida shakllanib ularning komillik tomon intilishi, ya'ni komil inson bo'lishiga xizmat qiladi.

Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, zamonaviy yoshlarga ona Vatanni madh etmoq shiori ostida inson uchun Vatandan buyukroq boylik yo'qligi, ona Vatan inson yashaydigan madaniyat, ma'naviyat, adabiyot, san'at, ilm-fan o'chog'i ekanligi, hadislarda keltirilganidek, "Vatanni sevmoq iymondan" ekanligini chuqr anglatmoq professional pedagoglarning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zero, ona Vatan bu bepoyon dalalar, shu yurt farzandlari, ularning hayoti, turmush tarzi, iymon-e'tiqodi, urf-odat va ming yillik analanalari-yu udumlari, o'sha xalq qo'li bilan bunyod etilgan obidalar, ajdodlarning boy moddiy va ma'naviy merosi, tili, tarixi va davlat

ramzlaridir. Shunday ekan, bugungi zamonaviy yoshlarga chuqr nazariy va amaliy bilimlarni berish bilan birga muhim kasbiy malaka va ko'nikmalarni ham hosil qilish, ijtimoiy hayotdagи barcha voqeа-hodisalarga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatish, qolaversa, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan beba ho ma'naviy merosni egallash, asrab-avaylab boyitish va o'z yurtini zamonaviy taraqqiyot sari olib chiqishga intilish ruhida tarbiyalash bugungi kunning ma'naviy-axloqiy talablaridan biridir. Zero, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi puxta shakllangan avlod ma'naviy-axloqiy bilim, ma'naviy-axloqiy tafakkur, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u, ma'naviy-axloqiy idrok fazilatlarini tushunishishi bilan birga, ma'naviy idrok va axloqiy irodani o'zida shakllantirib o'z bilimi va malakasi bilan o'z shaxsiy hayotini takomillashtirib boradi.

Ijtimoiy kompetentlilik esa biror bir jamiyatda boshqa odamlarning qarashlarini hisobga olgan holda harakat qilish qobiliyati bo'lsa, ijtimoiy-madaniy kompetentlilik – umumbashariy odob-ahloq, madaniy o'ziga xoslik va xuquqiy bilimlarni qo'llagan holda o'zi va o'zgalar madaniyatiga muvofiq ravishda harakat qilishni o'zida namoyon etuvchi jarayondirdir [4. B. 182-188].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar kompetensiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u orqali Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirilib boriladi.

Bugungi rivojlangan jamiyatda turli gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatining kuchayib borayotganligi ayrim yoshlarda o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yish, o'qish va izlanishga intilish, qolaversa, iroda, matonat va tirishqoqlik kabi harakatchanlik xususiyatlarining shakllanmasligiga yoki yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelmoqdaki, bundan ta'lim sifatiga ham zarar yetmoqda. Natijada bugungi yoshlarda Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik fazilatlarining shakllanishi, axloqiy tarbiyasidagi tafovutlar namoyon bo'lmoqda. Bu esa mustaqil hayotga kirib

kelayotgan bugungi yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda asosiy e’tiborni yoshlarni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy tarbiya kompetensiyalarini shakllantirishga bermog‘imiz lozim.

Axloqiy kompetensiya mezonlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik so‘zining negizini ona Vatanga bo‘lgan muhabbat tashkil etadi. Vatan so‘zi etimologik jihatdan arab tilidan olingan bo‘lib, “kindik qoni to‘kilgan joy, yurt” ma’nosini anglatadi. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi [5.].

Tayanch kompetensiyalar sifatida kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyalar shular jumlasidandir.

Tayanch kompetensiyalar negizidagi kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda shaxsning jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishishi uchun muayyan tilni mukammal o‘zlashtirishi, muloqotda samarali foydalana olishi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon eta olishi, savollarni mantiqan to‘g‘ri yo‘naltira olishi va javob berishi, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishi, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishi, turli ziddiyatlari vaziyatlarda o‘zini nazorat qila bilishi, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur, konstruktiv qarorlarni qabul qila olishi tushuniladi.

Tayanch kompetensiyalar negizidagi axborot bilan ishslash kompetensiyasida esa mayjud axborot manbalaridan, aniqrog‘i ijtimoiy tarmoq, internet manbalarida, ommaviy axborot vositalari, telefon, kompyuter va elektron pochtalardan oqilona foydalana olish qobiliyatlarini tushuniladi. Zero, bugungi axborot xurujlari zamonda talabalarning media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olishi, uni saralab, qayta ishlashi, tahlil qilishi, o‘z xavfsizligini ta‘minlagan holda foydalanish madaniyatga rioya qilishi murakkab tahliliy jarayondir.

Tayanch kompetensiyalar negizidagi shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi esa, kishining doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi, ham jismoniy va ham ma’naviy-ruhiy va intellektual kamolotga intilishi, o‘z bilim va tajribalarini muntazam rivojlantirib borishi, o‘zini nazorat qila olishi, halollik, to‘g‘rilik kabi chin insoniylik sifatlarini o‘zida mujassamlashtira olishi qobilayatlari tushuniladi.

Tayanch kompetensiyalar negizidagi ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi talabalarda jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlikni hisssini shakllantiruvchi, faol fuqarolik pozitsiyasi va burchini bilishi, unga rioya qilishi, mehnat va fuqarolik munosabatlarida umuminsoniy va huquqiy madaniyatga ega bo‘lishi, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilishi kabi qobilayatlarning shakllanishi tushuniladi.

Vatanga sadoqatl, barcha insonlarga birdek mehr-oqibatl bo‘lish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiq qolish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlар, urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalarga nisbatan mehrmuruvvat, saxiylik qilish, diniy e’tiqodi, milliy va etnik kelib chiqishidan qat‘i nazar barchani hurmat qilish, o‘zining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini asrab avaylash, eng asosiysi esa jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalari me’yorlariga qat‘iy rioya qilish axloqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlaridandir. Zero, tadqiqotlarda ta‘kidlanganidek, xalqlar, tillar va madaniyatlarning bir-biriga aralashuvi mislsiz keng quloch yoygan bugungi zamonda o‘zga madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglikni ta‘minlash, ularga nisbatan qiziqish va hurmat uyg‘otish ta‘minlash, yuzaga keladigan muammolarning ijobiylarini yechimini topish enga asosiy umuminsoniy tamoyillardan biridir [6. B. 47].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘lim muassasalarida kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan har qanday fan yoki ta‘lim talabalarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z faoliyatlarida amaliy qo’llay

olishga yo‘naltiruvchi ta’limga aylanib boradi. Natijada, talabalarda yuqorida qayd etilgan barcha zaruriy kompetensiyalar bilan birga, muayyan fanini o‘zlashtirish jarayonida mazkur fan mazmunidan kelib chiqib xususiy kompetensiyalar ham shakllantirib boriladi. Aynan shuning uchun, yurtimizda ta’lim mazmunining izchilligini ta’minalash maqsadida ham tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda ta’lim tizimining barcha bosqichlariga taqsimlanib singdirilgan.

Bugungi rivojlanish ta’lim tizimida innovatsion g‘oyalarni amalgalashish uchun eng avvalo pedagogning kasbiy salohiyati va tafakkurida tubdan o‘zgartirishlarni amalgalashishni taqozo etmoqdaki, bunda pedagog zamонавиyl darsliklardagi bilimlar bilan birga talabalarga axloqiy kompetensiyaga oid bilimlarning ham yetkazib beruvchisiga aylanib bormoqda. Chunki, axloqiy tarbiyasi mukammal shaxsni faqatgina ijtimoiy-axloqiy kompetentlikka ega bo‘lgan pedagoggina tayyorlay oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI/ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Omanov P.X. Xorijiy tillarni o‘qitishda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini

rivojlantirish (autentik videomateriallar asosida). Monografiya. –Toshkent, 2023. 107 b.

2. Raxmonov S.M. Jaloliddin Rumiy ilmiy merosining pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati. (Masnaviyi ma’naviy misolida) Monografiya. – Samarqand: «Samarqand davlat chet tillar instituti» nashriyoti, 2023. – 150 b.

3. Р.П.Мильруд // Научный диалог, № 2 (14): Педагогика. М.: – 2013.

4. Д.Ф.Ильясов. Формирование профессиональной компетентности будущего педагога в условиях творческой активности студентов: Сборник научных трудов и материалов конференции «Формирование профессиональной компетентности учителя начальных классов». – Самара: ГП «Перспектива»; ООО «Офорт», 2003 - Ч. 2.

5. Qomus.info. Onlayn ensiklopediya. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/vatan-uz/>

6. Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал “Эйдос”. - 2005. - 12 декабря. /journal/2005/1212.

